Приложение № 8 к правилам казначейского исполнения
бюджетов бюджетной системы Республики Узбекистан

**ГРАФИК ПЛАТЕЖЕЙ***
**к договору (контракту) от 21.01.2022 г. № 24/2-22**

**между Узб Рес Кур ваз хузур Шахарсозлик хуж эксперт ДУК и OSD Samarqand vil. hududiy bo`limi на общую сумму 621000,00**

Глава 011
Казначейский лицевой счёт 100010860184017033232011002

(в сумах)

| Наименование месяцев 2022 г. | Виды расходов** (соответствующий код бюджетной классификации) | | | Всего |
|---|---|---|---|---|
| | 4339000 | | | |
| Январь | 621 000,00 | | | 621 000,00 |
| Февраль | | | | |
| Март | | | | |
| Апрель | | | | |
| Май | | | | |
| Июнь | | | | |
| Июль | | | | |
| Август | | | | |
| Сентябрь | | | | |
| Октябрь | | | | |
| Ноябрь | | | | |
| Декабрь | | | | |
| **Всего за год** | **621 000,00** | | | **621 000,00** |

Всего 621000,00 сум Шестьсот двадцать одна тысяча сум 00 тийин

сумма прописью

Из вышеуказанной суммы 186300,00 сум или 30,00%*** от общей суммы договора
подлежат предоплате в Январь мес. 2022 г.

(*) — Бюджетные организации, получатели бюджетных средств и получатели средств ДЦФ, предоставляют в казначейские органы в 2 -х экземплярах;
(**) — Указывается раздел, глава, параграф и статья расхода;
(***) — Месячный _______% , от указанной выше суммы который необходимо оплатить до _____ числа текущего месяца. (Данное поле заполняется со стороны бюджетных организаций, получателей бюджетных средств и получателей средств ДЦФ в случае осуществления предоплаты в соответствии с порядком, установленным законодательством по договорам за оказание коммунальных услуг, услуг связи и предоставления в регулярном порядке товара (работ, услуг) указанных в правовых документах.)

Руководитель заказчика (подпись) **Зайниев Шухрат Неъматжонович**
Ф.И.О.

М.П.

Главный бухгалтер заказчика (подпись) **Бастамов Зарифжон Олимжонович**
Ф.И.О.

Принял работник казначейского подразделения _______________ (подпись)

Получил работник заказчика _______________ (подпись)

«___» ________________ 20___г.

«___» ________________ 20___г.

**Ekspertizadan o'tkazish to'g'risidagi**
**24/2-22 sonli SHARTNOMA**

**Samarqand.** **21.01.2022 y.**

O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi huzuridagi «**Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi**» Davlat unitar korxonasi **Samarqand viloyati filiali** (keyingi o'rinlarda «**Bajaruvchi**» deb yuritiladi) nomidan 07.01.2021 yil 6/04-04-sonli ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi direktor **Sh.Ilmuratov** bir tomondan **Sudlar Faoliyatini ta'minlash departamenti Samarqand viloyat hududidiy bo'limi** (keyingi o'rinlar «**Buyurtmachi**» deb yuritiladi) nomidan Низом asosida faoliyat yurituvchi **Direktor** Ш.Н. Зайниев ikkinchi tomondan, birgalikda «Tomonlar», quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

## I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Mazkur shartnomaga muvofiq, Buyurtmachining topshirig'i bo'yicha: **Jinoyat ishlari bo'yicha Samarqand shahar Sudi binosini kapital ta'mirlash** ob'ektining loyiha-smeta hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish bo'yicha xizmat ko'rsatish majburiyatini oladi, Buyurtmachi, o'z navbatida, ekspertizadan o'tkazish ishlari uchun to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

1.2. Ekspertizani o'tkazish muddati mazkur shartnomaning 2.2-bandiga muvofiq Buyurtmachi tomondan oldindan pul mablag'lari o'tkazilgandan so'ng 30 ish kuni, agar Buyurtmachiga hujjatlarni taqdim etish bo'yicha (kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risida) xat yuborilgan bo'lsa, ishlarni bajarish muddati Bajaruvchining xatida belgilangan davrga mutanosib ravishda uzaytiriladi. 21.01.2022 yildagi OSD-30-22-sonli murojaati asos hisoblanadi.

1.4. Ekspertizadan o'tkazish ishlarining yakuniy natijasi ekspert xulosasi hisoblanadi.

1.5. Bajaruvchi mustaqil ravishda hamda uchinchi shaxslarni jalb etish bilan Buyurtmachi manfaatlarini ko'zlab ishlarni bajaradi.

## II. SHARTNOMA BAHOSI VA O'ZARO HISOB-KITOB TARTIBI

2.1. Loyiha smeta hujjatlarini ekspertizadan o'tkazishning shartnomaviy narxlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17 sentabrdagi 579-son qarorining 6-ilovasiga muvofiq belgilanadi.

Shartnoma qiymatining hisob-kitobi:

270000*2 = 540000 + 15% QQS

**Jami to'lovga: 621 000 (Olti yuz yigirma bir ming) so'm 00 tiyin, shu jumladan QQS 15% 81 000 (sakson bir ming so'm 00 tiyin**.

2.2. Buyurtmachi Bajaruvchiga shartnoma imzolangandan so'ng 10 (o'n) kun ichida shartnoma umumiy qiymatining 30 % miqdorini oldindan to'laydi, qolgan 70 % miqdorini ishlar bajarilgandan so'ng topshirish-qabul qilish dalolatnomasi va hisob-faktura imzolanganidan keyin 10 (o'n) kun ichida to'lovni amalga oshiradi.

2.3. Ekspertizadan o'tkazish ishlari bajarilib, o'zaro to'liq hisob-kitob qilingandan so'ng, Bajaruvchi aybdor bo'lmagan taqdirda mazkur shartnoma predmeti bo'yicha takroran ekspertizaga taqdim etilsa, takroriy ekspertizadan o'tkazish uchun xaq to'lash yangi shartnoma tuzish orqali amalga oshiriladi.

2.4. Shartnoma majburiyatlari bekor qilinganda, shartnomaviy hujjatlar (bajaruvchining nusxalari) hamda qayta ishlashga va takomillashtirishga qaytarilgan loyiha materiallari taqdim etilmaganda, bajarilgan ish hajmidan qat'iy nazar to'langan mablag'lar qaytarilmaydi.

## III. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

3.1. Bajaruvchi taqdim etilgan loyiha xujjatlarini O'zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy xujjatlariga muvofiq ekspertizadan o'tkazish majburiyatini oladi;

3.2. Buyurtmachi mazkur shartnoma yuzasidan quyidagi majburiyatlarni oladi:

a) Bajaruvchiga ekspertizadan o'tkazish uchun zaruriy tegishli hujjatlarni o'z vaqtida to'liq taqdim etish;

b) ekspertizadan o'tkazish xizmati haqini o'z muddatida shartnomaning 2.2-bandiga muvofiq to'lovni amalga oshirish;

v) ekspertiza xulosasini olish bilan birgalikda ekspertizadan o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlarni qabul qilib olish. Hujjatlar olib ketilmagan taqdirda Bajaruvchi ularning saqlanishi uchun javob bermaydi.

## IV. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI, NIZOLARNI XAL QILISH TARTIBI

4.1. Buyurtmachi Bajaruvchiga bajarilgan ishlar uchun to'lovning kechiktirilgan har bir kuni uchun shartnoma bahosining 0,4% miqdorida penya to'laydi, biroq penyaning umumiy miqdori shartnoma bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

4.2. Bajaruvchi Buyurtmachiga ekspertizadan o'tkazish ishlarini bajarmaganda yoki o'z vaqtida bajarmaganda kechiktirilgan har bir kun uchun shartnoma bahosining 0,5 % miqdorida penya to'laydi, biroq penyaning umumiy miqdori shartnoma bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

4.3. Tomonlarning mazkur shartnomada nazarda tutilmagan javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

4.4. Mazkur shartnomaning bajarilishi yuzasidan tomonlar oʻrtasida kelib chiqadigan nizolar va kelishmovchilik muzokaralar yoʻli bilan hal etiladi.

4.5. Nizolarni muzokoralar yoʻli bilan hal etishning imkoni boʻlmagan taqdirda, kelishmovchiliklarni bartaraf etish Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq oʻrnatilgan tartibda Toshkent shahar tumanlararo iqtisodiy sudida koʻrib chiqiladi.

## V. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHGA DOIR MAJBURIY SHARTLAR

5.1. Shartnoma boʻyicha oʻz majburiyatlarini bajarishda tomonlar:

korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisidagi Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga zid boʻlgan har qanday xatti-harakatlarini amalga oshirmaslik;

shu jumladan pora taklif qilmasligi, vaʼda bermasligi, tovlamachilik qilmasligi, toʻgʻridan toʻgʻri yoki bilvosita pora olishiga, yaʼni moddiy boyliklar yoki mulkiy imtiyozlarni olishga rozilik bermasligi, pora beruvchining manfaatlari yoʻlida «Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi» DUK xodimi oʻz lavozimidan foydalangan holda amalga oshirishi yoki amalga oshirishi mumkin boʻlgan muayyan xarakatlarni bajarmasligi shart.

Tomonlar ushbu xarakatlarning oldini olish uchun choralar koʻrilishini kafolatlaydilar.

5.2. Agar tomonlar shartnoma shartlarining buzilishiga duch kelsa, shuningdek, «Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi» DUK xodimlarining ushbu shartnomaga va Oʻzbekiston Respublikasi qonunlariga zid boʻlgan xatti-xarakatlari, shu jumladan korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir etilganligi haqida quyidagi aloqa kanallariga murojaat qilish mumkin:

«Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi» DUK Samarqand viloyati filiali ishonchli telefonlari 366-233-05-53

## VI. SHARTNOMANI OʻZGARTIRISH YOKI BEKOR QILISH TARTIBI

6.1. Ushbu shartnomaga har qanday oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish ular yozma ravishda rasmiylashtirilgan va taraflarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan taqdirda xaqiqiy hisoblanadi.

6.2 Shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga taraflarning kelishuviga muvofiq yoki Oʻzbekiston Respublikasini amaldagi qonun xujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga koʻra, yetkazilgan zarar qoplangan holda yoʻl qoʻyiladi.

6.3. Shartnomani bekor qilish hakida qarorga kelgan taraf ikkinchi tarafga 3 kun oldin yozma bildirishnoma yuborishi shart.

## VII. FORS-MAJOR

7.1. Taraflar ixtiyoriga bogʻliq boʻlmagan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati boʻlmagan holatlar (yengib boʻlmas kuch) oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun taraflarning birortasi ikkinchi taraf oldida javobgar emasdir. Fors-major holatlari deb quyidagilar hisoblanadi:

- tabiiy ofatlar, yongʻin, epidemiya, avariya hamda boshqa omillar va holatlar, bunday holda majburiyatlarni bajarish muddatlari fors-major holatining davom etish muddatiga mutanosib tarzda uzaytiriladi.

7.2. Ikkala taraf mazkur shartnoma boʻyicha majburiyatlarni bajarishga toʻsqinlik qiluvchi fors-major holatlarining boshlanganligi va tugaganligi toʻgʻrisida bir-birlarini zudlik bilan xabardor qilishlari lozim.

7.3. Fors-major holatlarini vaj qilib keltirayotgan taraf ularning tasdigʻi sifatida vakolatli davlat organining tegishli hujjatini taqdim etishi shart.

## VIII. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

8.1. Shartnoma tomonlar imzolaganidan soʻng kuchga kiradi. Shartnoma 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

8.2. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzildi. Ikkala nusxa aynan bir xil va teng yuridik kuchga ega.

**Tomonlarning manzillari va rekvizitlari:**

**Bajaruvchi:**
Oʻzbekiston Respublikasi Qurilish Vazirligi huzuridagi
**“Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi” DUK**
**Samarqand viloyati filiali**
**Manzil:**703003,Samarqand sh., Ko’ksaroy maydoni 2 D
**H/R:** 2020 8000 6008 8257 3006
**STIR:** 305 550 214 **IFUT:** 71120
**Bank:** Samarqand shahar “Turon bank” ATB Samarqand viloyat filiali
**MFO:** 00282 **Telefon:** 233-03-89, 233-05-53
**QQS Ruyxatdan o'tish raqami:** 326050000 2278

**Direktor** ____________ **Sh.Ilmuratov**

**Huquqshunos** ____________ **Sh.Dehqanov**
**Diplom:** BN № 18873 02.07.2007 y

**Buyurtmachi:**
**Sudlar Faoliyatini ta'minlash departamenti**
**Samarqand viloyat hududidiy boʻlimi**

O'ZBEKISTON RESP. OLIY SUDI HUZURIDAGI
SUDLAR FAOLIYATINI TA'MINLASH DEPARTAMENTI
SAMARQAND VILOYAT HUDUDIY BO'LIMI
Manzil:140103 Samarqand sh., Mingtut 1-uy
ShHV: 400010860184017033232011002
STIRi: 207252261 IFUT: 84112
G'azna: O'zR Moliya vazirligi. G'aznachiligi
G'azna h/r: 23402000300100001010
Bank nomi: Markaziy bank HKKM, Toshkent sh.
Bank kodi: 00014 G'azna STIRi: 201122919

**Direktor** ____________

Yurist ____________